

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

TOVUSHGA TAQLID SO‘ZLAR TADQIQI (TOG‘AY MUROD ASARLARI MISOLIDA)

Nuraliyev G‘olibjon Qurbonboyevich

SamDU mustaqil tadqiqotchisi

golibjon.nuraliyev77@gmail.com

Annotatsiya: o‘zbek tilshunosligida taqlid so‘zlar o‘tgan asrning 70-yillaridan monografik ko‘lamda o‘rganila boshlangan bo‘lib, uning ichki strukturasi haqida qarashlar ham shu vaqtlarda shakllana boshlaydi. Taqlid so‘zlar tilshunoslikda ikki katta guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Bular: tovushga taqlid so‘zlar va harakat-holatga taqlid so‘zlardir. Maqolamizda Tog‘ay Murod asarlari misolida taqlid so‘zlarning yirik bir tarmog‘i bo‘lmish tovushga taqlid so‘zlar haqida mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: taqlid so‘zlar, jonli predmetlar tovushi (odamlar, hayvonlar, qushlar, hasharotlar)ga taqlid so‘zlar, jonsiz predmetlar tovushi (qattiq va yumshoq jismlar, suyuq va gazsimon jismlar, har xil mexanizmlar, tabiat hodisalari)ga taqlid so‘zlar.

Abstract: Imitative words in Uzbek linguistics have been studied monographically since the 1970s, and views on its internal structure were also formed at this time. Imitative words are studied in linguistics in two large groups. These are: words that imitate sounds and words that imitate actions. In our article, on the example of Togay Murad’s works, comments are made about words that imitate sounds, which are a combination of words that imitate words.

Key words: Imitation words, sounds of living objects (people, animals, birds, insects), imitation words, sounds of inanimate objects (hard and soft bodies, water and gaseous bodies, various mechanisms, natural phenomena) . imitation words.

Аннотация: Подражательное слово в узбекском языкознании изучается монографически с 1970-х годов, в это же время формируются взгляды на его внутреннюю структуру. Подражательные слова изучаются в лингвистике в двух больших группах. Это: слова, имитирующие звуки, и слова, имитирующие действия. В нашей статье на примере произведений Тогая Мурада даны комментарии о словах, имитирующих звуки, представляющих собой сочетание слов, имитирующих слова.

Ключевые слова: Слова-подражания, звуки живых предметов (люди, животные, птицы, насекомые), слова-подражания, звуки неодушевленных предметов (твердых и мягких тел, водных и газообразных тел, различных механизмов, явлений природы), имитация слов.

Avvalambor, ma’lum tovush yoki harakat-holat tilda so‘z degan maqomni olishi uchun fonetik shakllanishi va nutqda o‘z aksini topishi kerak. Shunda u lingvistikaning o‘rganish obyektiga aylanishi mumkin. Taqlid so‘zlar o‘zbek tilshunosligida ilk o‘rganilgan davrlardan boshlab ikki guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Bular: tovushga taqlid so‘zlar va harakat-holatga taqlid (obrazli) so‘zlardir. Maqolamizda taqlid so‘zlarning yirik bo‘limi, tovushga taqlid so‘zlarni o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Tog‘ay Murod asarlari misolida o‘rganamiz. “O‘zbek xalqiga haykal qo‘yaman” degan adib, sir emaski, ma’lum darajada buni amalga oshira oldi. Uning asarlarida o‘z davrida o‘zbek xalqining turmush-tarzi, yashash sharoitlari, orzu-umidlari, hasrat-armonlari o‘z aksini topgan. Adib o‘z asarlarida asar

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

badiiyatini, qahramon ruhiyatini ochib berishda taqlidiy so‘zlardan, xususan, tovushga taqlid so‘zlardan keng foydalangan.

Ma’lumki, tovushga taqlid so‘zlar taqlid so‘zlarning bir guruhi bo‘lib, kishilar, har xil jonivorlar, narsa va hodisalarning chiqargan tovushlariga taqlid qilish natijasida paydo bo‘ladi. Tilimizdagi tovushga taqlid so‘zlarning asosiy qismi bir yoki ikki yopiq bo‘g‘indan iborat bo‘lib, takrorlanganda asosan shu taqlid so‘z ba’zida o‘zgar olmaydi, ba’zan ma’lum fonetik o‘zgarishlarga uchraydi. Shu asosda tovushga taqlid so‘zlar juft va takroriy kabi turlarga bo‘linadi. Albatta, bu fonetik o‘zgarishlar taqlid so‘zning ma’nosiga ma’lum ta’sir qilganligi sezilib, taqlid so‘z ma’nosi kengayishi kuzatiladi. *Taq-taq* kabi takroriy taqlid so‘zdan *taq-tuq* kabi juft taqlid so‘z ma’lum ma’no anglatishi, semantik maydoni yuzasidan kengroqligi anglashiladi. *Taq-taq* bir xil tovushning nomi va u takrorlanib kelmoqda. *Taq-tuq* ma’lum ma’noviy otkenkada farqlanadigan ikki xil tovushning nomi bo‘lib, juft holda kelgan taqlidiy so‘zdir. Sodda holda nutqda qo‘llangan taqlidiy so‘z ma’lum hodisaning bir marta bo‘lganligini, bir lahzada sodir bo‘lganlikni anglatadi. Tovushga taqlid so‘zlar juft yoki takror holda qo‘llanilganda jonli va jonsiz predmetlarni hosil qilgan tovushlarini bir marta lahzalik emas, balki takrorlanuvchi, davomli ekanligini ifodalaydi.

O‘zbek tilshunosligida tasviriy so‘zlar kategoriyasi monografik planda o‘rganilishi tilshunos olim R.Qo‘ng‘irov nomi bilan bog‘liq bo‘lib, olim o‘zining “O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar” nomli monografiyasida tilimizdagi taqlidiy so‘zlarni ikki guruhga bo‘lib tadqiq etgan. Ular quyidagilar: tovushga taqlid so‘zlar va obrazli so‘zlar. Monografiyada tovushga taqlid so‘zlar ham o‘z ichida dastlab ikki qismga bo‘linadi: Jonli predmetlar tovushlariga taqlid va jonsiz predmetlar tovushlariga taqlid deb ikkiga bo‘lib o‘rganilgan. Jonli predmetlar tovushlariga taqlid so‘zlar ham turli xil ichki bo‘linishlarni o‘zida aks etadi: kishilarning harakatlaridan paydo bo‘lgan tovushlarga taqlid so‘zlar, turli xil hayvon va jonivorlar tovushiga taqlid so‘zlar va parrandalar tovushiga taqlid so‘zlar kabi. Jonsiz predmetlar tovushiga taqlid so‘zlar ham o‘z navbatida ichki bo‘linishlarga ajratiladi: qattiq predmetlar tovushiga taqlid so‘zlar, har xil mexanizmlar, motorlar, transport kabilarning harakatidan va qurollardan o‘q uzish paytida paydo bo‘lgan tovushlarga taqlid so‘zlar, boshqa predmetlarning tovushiga taqlid natijasida hosil bo‘lgan so‘zlar, gzsimon predmetlar va suyuqliklar harakatidan paydo bo‘lgan tovushlarga taqlid so‘zlar kabi bo‘linishlari keltiriladi va bunday so‘zlar atroflicha tadqiq etiladi [5:62-68].

Tovushga taqlid so‘zlarning bunday ichki bo‘linishlarini yana juda ko‘p davom ettirish mumkin, chunki jonli va jonsiz predmetlar ijtimoiy hayotda juda ko‘p

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bo‘lib, ularning ma‘lum tovushlari va harakat-holatlariga taqliddan tilimizda ishlatiladigan so‘zlar anchagina. Maqolamizda tovushga taqlid so‘zlarni dastlab, biz ham ikkiga bo‘lamiz: jonli predmetlar va jonsiz predmetlar tovushlariga taqlid so‘zlar kabi.

I. Jonli predmetlar tovushiga taqlid so‘zlarni quyidagicha ichki bo‘linishlarini keltirishimiz mumkin:

1) odamlar harakat-faoliyati natijasida hosil bo‘lgan tovushlarga va odamlar yo‘talganda, kulganda, hayajonlanganda va boshqa holatlarda chiqaradigan tovushlariga taqlid so‘zlar;

2) hayvonlar harakat-faoliyati va chiqargan tovushlari natijasida hosil bo‘lgan taqlid so‘zlar;

3) qushlar harakat-faoliyati va chiqargan tovushlari natijasida hosil bo‘lgan taqlid so‘zlar;

4) hasharotlar harakat-faoliyati va chiqargan tovushlari natijasida hosil bo‘lgan taqlid so‘zlar singari bo‘linishlarni keltirish mumkin.

Bu ichki bo‘linishlarni o‘zini ham yana ko‘plab mayda bo‘laklarga bo‘lib o‘rganish mumkun. Birgina, odamlar harakat-faoliyati natijasida hosil bo‘lgan tovushlarga va odamlar yo‘talganda, kulganda, hayajonlanganda va boshqa holatlarda chiqaradigan tovushlari natijasida hosil bo‘lgan taqlid so‘zlarning o‘zini ham bir qancha guruhlariga bo‘lish mumkun. Har qanday jonli va jonsiz predmetlar tovushlariga tilda lisoniy ahamiyatga ega bo‘lgan taqlid so‘zlarni hosil qiladigan ham bunday so‘zlardan ma‘lum eshitilgan tovushni haqqoniylikka yaqin ifodalash uchun foydalanadigan ham insonning o‘zidir.

1. Odamlar harakat-faoliyati natijasida hosil bo‘lgan tovushlarga taqlid so‘zlar tilimizda ko‘plab mavjud bo‘lib, bunday so‘zlar odamlarning harakat-faoliyati hamda har xil ruhiy kechinmalarini tasvirlash yuzasidan hosil bo‘lishi ko‘rinadi: *Barmoqlarini qirs-qirs o‘ynatib, yo‘ldoshidan so‘radi* [2:21]. *Qars-qars qarsak bo‘ldi. Chalp-chalp qarsak bo‘ldi* [2:60]. *Tishlarim tik-tik etdi* [1:91]. *Boshimni qirt-qirt qashidim* [2:137]. *Men tizamga tars-tars urub yig‘ladim. Rejissyor tishlari orasidan chirt-chirt tupurdi.* [2:208] kabi ko‘plab taqlidiy so‘zlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Odamlar yo‘talganda, kulganda, hayajonlanganda va boshqa holatlarda chiqaradigan tovushlari bilan bog‘liq tasviriy so‘zlar ko‘p bo‘lib, ularning hammasi stilistik bo‘yoqdorlik va tasviriylik semasi bilan bog‘liqdir. *Muallimlarimiz piq-piq kuldi* [2:54]. Tog‘ay Murod asarlarida uchraydigan tasviriy so‘zlar asosan bir bo‘g‘indan tashkil topgan bo‘lib, ikki bo‘g‘indan iborat bo‘lgan tasviriy so‘zlar ham kam sonli bo‘lsa-da, mavjud. Ammo uch va undan ko‘p bo‘g‘indan iborat bo‘lgan

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tasviriy so‘zlar deyarli yo‘q hisob. Shu o‘rinda taqlidiy so‘zlarning asosan undosh tovushlardan boshlanishi va ko‘pincha undosh-unli-undosh, undosh-unli-undosh-undosh qolipida bo‘lishini aytib o‘tishimiz kerak. *Piq-piq, shiq-shiq, tars-turs, chirs-chirs* kabi.

2. Hayvonlar harakat-faoliyati va chiqargan tovushlari natijasida hosil bo‘lgan taqlid so‘zlar ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ular asosan uy hayvonlari bilan bog‘liq. Bunga sabab, insonning ijtimoiy turmushida bevosita uy hayvonlari bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘lganligida bo‘lsa kerak: *Tasur-tusur yer tepdi... tarlon dingilladi! Ding-ding etdi* [3:199]. *Qo‘ylar tumshuq cho‘zib **pix-pix** etadi* [2:98]. Bunday taqlidiy so‘zlar tilimizda hayvonlar, qushlar va hasharotlar harakatlari taqlidi sifatida ham ko‘plab o‘z aksini topgan.

3. Qushlar harakat-faoliyati va chiqargan tovushlari natijasida hosil bo‘lgan taqlid so‘zlar ham tilimizda ko‘p va ulardan yasalgan fe‘l, ot kabi turkumlarga o‘tgan so‘zlar ham anchagina uchraydi. Ayniqsa, ba‘zi qushlarning nomlari ular chiqargan tovushlari asosida paydo bo‘lib, ular, albatta, o‘z-o‘zidan ot so‘z turkumiga o‘tgan. Taqlidiy so‘zlardan og‘zaki va yozma nutqda asosan tovush hamda harakat-holatni haqqoniylikka imkon darajasida yaqin va obrazli ifodalash maqsadida foydalaniladi. Albatta, tabiatdagi turli-tuman tovushlarni cheklangan nutq tovushlari tizmi orqali aynan takrorlash qiyin bo‘lib, bunday tovushlarning taqlidi imkonqadar asliga yaqin tasvirlash bilan cheklaniladi. Bunday so‘zlarning asarlarda qo‘llanilishi o‘quvchiga ham voqiylikni jonli, yorqin anglashiga va ko‘z oldiga keltirishiga yordam beradi. Taqlidiy so‘zlarning bir necha bor takrorlanib kelish hollari, ularning davomiylik semasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Undosh-unli-undosh-undosh kabi fonetik tartibga ega bo‘lgan tasviriy so‘zlar ham adib asarlarida juda ko‘p uchraydi: *Tollarda qishlamish qushlar **gurr-gurr** uchadi* [2:10]. *Men tashqarilab edim bir qaldirg‘ochimiz boshim uzra **chirq-chirq** aylanadi* [2:83]. Kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin.

4. Hasharotlar harakat-faoliyati va chiqargan tovushlari natijasida hosil bo‘lgan taqlid so‘zlar ham tilimizda ma‘lum guruhga ega. Kundalik hayotimizda ko‘p duch keladigan mayda jonzotlar harakati va tovushlari natijasida tilda lisoniy ahamiyatga ega bo‘lgan taqlidiy so‘zlar vujudga kelgan bo‘lib, bunday so‘zlar adib asarlarida ham keng qo‘llanilgan: *Fonusimni hasharotlar **chirt-chirt** chertib aylanadi. Chigirtkalar **chirr-chirr** etdi* [2:144].

Taqlidiy so‘zlar jonli va jonsiz tabiatdagi barcha predmetlarning tovushi, harakati va holatini lisoniy ifodasidir. Bunda so‘zlovchining tinglovchiga, yozuvchining o‘quvchiga o‘z fikrini jonli, haqqoniy yetkazish maqsadida foydalanishi kuzatiladi.

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

II. Jonsiz predmetlar tovushiga taqlid so‘zlarni ham quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkun:

- 1) qattiq va yumshoq jismlar tovushiga taqlid so‘zlar;
- 2) suyuq va gazsimon jismlar tovushiga taqlid so‘zlar;
- 3) har xil mexanizmlar tovushlariga taqlid so‘zlar;

4) tabiat hodisalariga bog‘liq tovushlarga taqlid so‘zlar kabi guruhlarga bo‘lib o‘rganishimiz mumkun. Bu guruhlarga bo‘lish ham jonsiz predmetlar tovushiga taqlid so‘zlarni hammasini qamrab olish imkonini bermasligi mumkin. Chunki borliqda turfa xil jonsiz predmetlar bo‘lib, ular tuzilishi va hajmi kabi farqli jihatlari mavjud.

1. Qattiq va yumshoq jismlar tovushiga taqlid so‘zlarning ko‘pchiligi bevosita insonning ishtiroki natijasida hosil bo‘lgan tovushlar tilda lisoniy ahamiyatga ega bo‘lgan taqlidiy so‘zlarning hosil bo‘lishida asos bo‘lishi kuzatiladi: *Beshik yo‘rg‘a gurs-gurs borib keldi. Beshik yo‘rg‘a do‘q-do‘q borib keldi* [2:105]. Bu misolimizda bir xil holatning ikki xil tovushga taqlid so‘z bilan tasvirlanishini ko‘rish mumkin. *Dalalarim bilch-bilch loy bo‘ldi. Men shilt-shilt loy botib ko‘sak teraman* [2:219]. *Shu birovgina bidonimiz-da darang-durung bo‘sh yotadi* [2:228]. *O‘zimizdan bo‘lsa, taraqq-turuq uradi* [2:220]. *Oqposho qasir-qusur yumalamish toshlarni ko‘zlab miltiq bo‘shatadi* [2:24]. *Taraqq-yuruq, qasir-qusur* kabi juft tovushga taqlid so‘zlarda unli tovushlarning almashishi natijasida taqlid so‘z juftida yangi ma‘noviy ottenka hosil bo‘lishi kuzatiladi.

2. Suyuq va gazsimon jismlar tovushiga taqlid so‘zlar ham tilimizda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ular asosan bir bo‘g‘indan iborat bo‘lishi kuzatiladi: *Qozonda bilq-bilq qaynamish sho‘rva ko‘nglimni aynitdi* [2:67]. *Samalyot tiz-tiz dori sepib-sepib uchdi* [2:64] kabi.

3. Har xil mexanizmlar tovushlariga taqlid so‘zlarni o‘zini ham turli xil turlarga ajratish mumkin. Masalan: mashinalar tovushiga taqlid so‘zlar, o‘q otar qurollar tovushiga taqlid so‘zlar va turlicha texnik vositalarni ham sanab o‘tish mumkin. Bu tur tasviriy so‘zlarda ikki bo‘g‘inli bo‘lganlari ham ko‘plab uchraydi: *To‘plar sharaq-shuruq bo‘ladi. Gumbur-gumbur otadi. To‘plar jangir-jungir o‘qlanadi* [2:16]. *Shu vaqt telefon jiring-jiring etadi* [2:24]. *Aparatlar shir-shir surat olib turdi* [2:208]. Bunday misollarni juda ko‘p keltirish mumkin, boyisi, bugungi kunda kundalik hayotimizda texnik vositalarning o‘rni juda katta bo‘lib, turlari ham bir talay. Ular chiqaradigan tovushlar bilan bog‘liq bo‘lgan taqlid so‘zlar ham Tog‘ay Murod asarlarida salmoqli bo‘lishi tabiiydir.

4. Tabiat hodisalariga bog‘liq tovushlarga taqlid so‘zlar ham tilimizda anchagina, ular asosan yomg‘ir, qor yog‘ishi, shamol kabi tabiiy hodisalar bilan

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bog‘liq bo‘lishi mumkin: *Bulut sharr-sharr yog‘di* [2:94]. *Sharr-sharr* tasviriy so‘zining gap tarkibida kuchayturuvchi qo‘shimcha qabul qilib kelish hollari ham uchrab turadi: *Sharros-sharros yomg‘r yog‘di* [2:90]. Shamol bilan bog‘liq har xil tasviriy so‘zlarni ham uchratish mumkin: *Shamol tol shoxlarini qirs-qirs sindirdi* [2:93].

Tovushlarga taqlid so‘zlarni Tog‘ay Murod asarlari misolida qisqacha tasnifini keltirishga harakat qildik. Bunday so‘zlar ijodkor asarlarida ko‘pligi bilan bir barobarda ularni hosil bo‘lishida zamin bo‘lgan jonli va jonsiz predmetlar ham juda ko‘p. Shu bois tasnifimizdan ba‘zi predmetlar chetda qolgan bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, tilimizda jonli va jonsiz predmetlar tovushiga taqlid tarzida paydo bo‘lgan taqlidiy so‘zlarning o‘xshash va farqli jihatlarini quydagicha: birinchidan, jonli predmetlar tovushiga taqlid so‘zlar orasida kishilar, hayvonlar va boshqalarning tovushi chiqarish organlari bilan bog‘langan so‘zlar bor, jonsiz predmetlar tovushi stixiyali ravishda paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, jonli predmetlar tovushiga taqlid so‘zlar *etmoq, demoq* yordamchi fe‘llari bilan birika olsa, jonsiz predmetlar tovushiga taqlid so‘zlar, asosan, *etmoq* yordamchi fe‘li bilan birika oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пардаев А. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд: 2011.
2. Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти, 1994.
3. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom: Qissalar // Asr oshgan asarlar turkumi. – Т.: Sharq, 2006.
4. Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
5. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Т.: Фан, 1966.
6. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар, II қисм. – Самарқанд: 1980.